

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros muhofazasi.....	332
<b>U.N.Olimov</b>	
Arab tarixshunosligida XIX asr oxirida Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlar va Rossiya imperiyasi bosqinining o'rganilishi .....	336
<b>M.Q.Tolibboyev</b>	
O'zbekiston hududida mahallaga xos ilk belgilarning paydo bo'lishi va boshqaruv an'analarga doir mulohazalar .....	340
<b>X.S.Jumanazarov</b>	
Xalq tabobatida davolash usullarining mintaqaviy xususiyatlari.....	346
<b>Sh.N.Jo'rayev</b>	
Sulton Husayn Boyqaro davrida diniy ulamolarning o'rni.....	351
<b>O.M.Normatov</b>	
O'zbekistonda o'tkazilgan rayonlashtirish natijalari.....	356
<b>D.G'.Mirzayev</b>	
"Turkiston viloyatining gazetasi" da Qo'qon xonligining bosib olinishiga oid ma'lumotlar tahlili .....	361
<b>A.O.Toirov</b>	
Anushteginiylar sulolasi davrida ijtimoiy hayot.....	369
<b>P.A.Nabiyev</b>	
"Farg'ona vodiysi tojiklarining farzand tug'ilishi va to'y marosimlari bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va an'analari (Qorategin tojiklari misolida)" .....	373
<b>A.A.Mamadjanov</b>	
Muhammad Vafo Karmanagiy – Buxoro amirligi tarixchilik maktabining ilk vakili .....	378
<b>P.A.Арслонзода</b>	
Тасвири макотиб ва мадориси аморати бухоро дар "Ёддоштҳо"-и Садриддин Айни .....	382

#### ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>A.A.Kasimov, Sh.G'.Akbarova</b>	
Badiiy retsepsiyaning nazariy asoslariga doir.....	389
<b>Z.J.Pardayeva</b>	
Dostoevskiy, Baxtin, Polifonik roman .....	393
<b>H.Jo'rayev</b>	
Totem tushunchalarning ijtimoiy tafakkur tarixidagi o'rni.....	401
<b>K.A.Jamahmatov</b>	
Adabiy manbalarda Arshiy Termiziyning hayoti va ijodiy faoliyatining tadqiqi .....	404
<b>X.Jo'rayev, M.Ismoilova</b>	
Ijtimoiy tafakkurning majoziy ifodasi .....	410
<b>I.I.Rustamova</b>	
Dramada sahnada ko'rinmaydigan qahramon va uning badiiy talqini .....	413
<b>M.A.Jo'rayeva</b>	
Jadid adabiyotida safarnoma janri va uning taraqqiyoti .....	417
<b>M.Islomova</b>	
Taqlid va Tasvir .....	421
<b>D.G'.Gafurova, A.A.Qayumov</b>	
Isajon Sulton hikoyalarda shamol timsoli.....	424
<b>X.T.Мирзаев</b>	
Талқини рукноҳи арӯзӣ дар рисолаи "Меъроҷ-ул-арӯз"-и Муҳаммад Фиёсиддин .....	428
<b>N.Q.Bo'riyeva</b>	
J.R.R.Tolkinning "Uzuklar hukmdori" asarida yaxshilik kontsepti.....	433
<b>M.Sh.Dehqonova</b>	
Mustaqillik davri dramaturgiyasi va adabiy tanqid.....	440
<b>G.A.Mashrapova</b>	
Ertak syujet tiplarida qidiruvga qarshi safar (antiqidiruv) motivi turlari.....	445
<b>Q.V.Yo'lchiyev</b>	
Abdulla Sherning "Ikki ayol haqida qo'shiq" she'ri tahlili .....	449
<b>B.N.Isakova</b>	
Adabiyotda badiiy va mushtarak tarjimaning ahamiyati .....	456



UO‘K: 8125(075)+821,512,133,09(062)

## ADABIYOTDA BADIY VA MUSHTARAK TARJIMANING AHAMIYATI

## ЗНАЧЕНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО И ОБЩЕГО ПЕРЕВОДА В ЛИТЕРАТУРЕ

## THE IMPORTANCE OF LITERARY AND GENERAL TRANSLATION IN LITERATURE

Isakova Barchinoy Ne‘matovna 

O‘zbekiston Respublikasi IIV Farg‘ona akademik litseyi tillar kafedrasida o‘qituvchisi, Farg‘ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya**

Badiiy tarjimaning adabiyotdagi ahamiyati, milliy madaniyatlar va milliy adabiyotlarda mushtarak ijtimoiy–siyosiy, adabiy–estetik qonuniyatlarning paydo bo‘lishida ham tarjimaning katta roli va tarjima tarbiyaviy, ma‘rifiy ahamiyatga ega. Tarjima tushunchasining ma‘nosi juda keng. Bir tildan ikkinchi tilga badiiy adabiyot, she‘r, dramatik va nasriy asarlar, fanning turli-tuman sohalariga doir ilmiy va ilmiy-ommabop kitoblar, diplomatiya hujjatlari, rasmiy qog‘ozlar, siyosiy arboblarning maqolalari va notiqning nutqlari, gazeta materiallari; boshqa boshqa tillarda so‘zlashuvchi, "tilmoch"ning xizmatiga muhtoj bo‘lgan kishilarning suhbatlari tarjima qilinadi, bir tildan ikkinchi tilga kinofilmlar o‘g‘iriladi. Badiiy tarjima - badiiy ijod sohasidir. Chunki tarjimaning bo‘lak sohalaridan farqli o‘laroq, badiiy tarjimaning o‘z xususiyatlari mavjud. Bu xususiyatlar badiiy adabiyotning tabiatidan kelib chiqadi. Chunonchi, agar fanda asosiy narsa dalil, tahlil, sxema bo‘lsa, badiiy asarda obraz, tasvir va hikoya qilinayotgan voqeaning ta‘sirchanligi muhim ahamiyat kasb etadi.

**Аннотация**

Значение художественного перевода в литературе, большая роль перевода в формировании общих социально–политических, литературно–эстетических закономерностей в национальных культурах и национальной литературе, а также перевода имеют воспитательное, просветительское значение. Смысл понятия перевода очень широк. С одного языка на другой переводятся художественная литература, поэзия, драматические и прозаические произведения, научные и научно-популярные книги по различным областям науки, дипломатические документы, официальные документы, статьи политических деятелей и выступления ораторов, газетные материалы; переводятся разговоры людей, говорящих на других языках, нуждающихся в услугах "лингвиста", переводятся фильмы с одного языка на другой. Художественный перевод-это сфера художественного творчества. Потому что, в отличие от фрагментарных областей перевода, художественный перевод имеет свои особенности. Эти характеристики проистекают из природы художественной литературы. Потому что, если в науке главным является доказательство, анализ, схема, то в художественном произведении значение приобретает образ, образность и выразительность рассказываемого события..

**Abstarct**

The importance of literary translation in literature, the great role of translation in the formation of general socio-political, literary and aesthetic patterns in national cultures and national literature, as well as translation have educational, educational significance. The meaning of the concept of translation is very broad. Fiction, poetry, dramatic and prose works, scientific and popular science books on various fields of science, diplomatic documents, official documents, articles by political figures and speeches by speakers, newspaper materials are translated from one language to another; conversations of people speaking other languages who need the services of a "linguist" are translated movies from one language to another. Literary translation is a field of artistic creation. Because, unlike fragmentary areas of translation, literary translation has its own characteristics. These characteristics stem from the nature of fiction. Because if in science the main thing is proof, analysis, scheme, then in a work of fiction the image, imagery and expressiveness of the event being told acquire importance.

**Kalit so‘zlar:** badiiy tarjima, adabiy-estetik qonuniyatlar, tarjima adabiyoti, original adabiyot, estetik ta‘sir, rasmiy stil, ilmiy stil.

**Ключевые слова:** художественный перевод, литературно-эстетические законы, переводная литература, оригинальная литература, эстетический эффект, формальный стиль, научный стиль.

**Key words:** artistic translation, literary-aesthetic laws, translated literature, original literature, aesthetic effect, formal style, scientific style.

### KIRISH

Hozirgi jadal rivojlanib borayotgan davrda nafaqat ona tilini mukammal bilish, balki chet tillarini ham o'rganish tilshunoslik sohasini yanada rivojlantirishga ko'mak beradi. Bu borada **“Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqti soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga naqsad qilib qo'ygan ekanmiz bundan buyon yoshlarimiz kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart.”** deydi O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Badiiy tarjima sababli milliy adabiyotlarning o'zaro aloqasi, bir– biriga ta'siri kundan–kunga rivojlanib bormoqda. Keyingi yarim asr ichida bir mamlakatlar adabiyotining boshqa mamlakatlar adabiyoti olamiga kirib borishi jarayoni muayyan darajada butkul insoniyat madaniyatini to'la qamrab oldi. Miqyos e'tibori bilan ham, jadallik e'tibori bilan ham, ijtimoiy mazmun e'tibori bilan ham bu jarayon to'xtovsiz rivojlanib bormoqda.

Milliy tillarning boyishi, mushtarak so'z, atama, iboralarning paydo bo'lishida ham, milliy madaniyatlar va milliy adabiyotlarda mushtarak ijtimoiy–siyosiy, adabiy–estetik qonuniyatlarning paydo bo'lishida ham tarjima katta rol o'ynaydi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Badiiy asar tiliga kategorial yondashuvning shakllanishi, badiiy so'zni ijodning shakl va mazmun xossalari birligida o'rganishga harakat badiiy asarni estetik va falsafiy nuqtai nazardan tushunish uchun asos bo'ladi. Jumladan, G.E.Lessing, F.Shiller, Gumboldt, A.A.Potebnya, V.V.Vinogradov, V.M.Jirmunskiy, V.Ya.Zadornova, O.S.Axmanova, G.O.Vinokur, L.V.Shcherba ishlari o'rganilishi muhim ilmiy xulosalaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. A.Xolodovichning “Adabiy til uslubshunosligi”, “Poetikada lisoniy usul” asarlarida, nemis olimi E.Koseriuning poetik tilning yangi izohi kabi tushunchalarida, fransuz tilshunoslari D.Delas va J.Fiyollarning lingvistika va poetika bo'yicha yangi qo'llanmalarida, Ye.B.Artemenkoning lingvofolkloristika bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida lingvopoetikaning filologiya va adabiy tarjima ilmida alohida fan sifatida o'rganilishi yuzasidan qarashlari bayon qilingan.

Tarjima haqida so'z boshlashdan oldin, tarjima so'zining qayerdan paydo bo'lganligi, qanday ma'nolarni anglatganligi, uzoq tarixiy davr davomida olimlarimiz tarjima ma'nosini qanday anglaganliklarini kuzatish maqsadga muvofiqdir. Tarjima nima? Tarjimaning ommaviy ta'rifi turli xil bo'lishi mumkin degan savolga: - Bir tilda yozilgan kitobni ikkinchi tilga o'girish, - deb javob beradi bir kishi. Boshqa odam esa bu ta'rifga e'tiroz bildiradi; - Tarjima qilinayotgan narsa, bordi-yu, kitob emas, balki og'zaki nutq bo'lsa-chi? Bu taqdirda: tarjima - bu bir tilda bayon qilingan fikrni o'zga tilda so'zlovchi kishilarga tushuntirib berishdan iborat deb qaraymiz; - O'girilayotgan narsa unisi ham emas (kitob), bunisi ham emas (og'zaki nutq), balki - kinofilm deb faraz qilaylik, -bahsga aralashadi uchinchi shaxs [14; 56-57-b.] - Filmlar ham tarjima qilinadi-ku, shunday emasmi? - deydi u. - Bas, tarjima bir tilda rol ijro etayotgan aktyorning nutqini ikkinchi, uchinchi va hokazo tillarga o'tkazish demakdir. Bunda o'sha aktyorning nutqiga uning harakatlari, ichki kechinmalari, yuz ifodasi mos kelishi lozim. Aks holda... Xullas, bahs shu tarzda davom etadi. Bundan ma'lum bo'ladiki, tarjimani har kim o'zicha tushunarkan. Tarjima xususida yuqoridagi mulohazalarda asos bor. Aniqroq qilib aytganda, ularning har biri tarjimani bir tomondan ta'riflab, bu haqidagi umumiy tushunchani to'ldirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, bahsda qatnashayotganlarning dalillaridan tarjima sertarmoq, murakkab soha ekanligi ham ma'lum bo'ladi.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Tarjima qilinayotgan matn yoki nutqning qandayligidan qat'iy nazar, bir tildan boshqasiga o'girilayotgan har qanday tarjima uchun umumiy bo'lgan ikki holat bor:

1. Tarjimonning maqsadi - asl nusxa tilini bilmagan kitobxon (yoki tinglovchi)ni o'sha asar matni (yoki og'zaki nutq mazmuni) bilan iloji boricha to'la, mukammal tanishtirish.

2. Tarjima qilish - muayyan til vositalari bilan bir karra ifoda etilgan matni boshqa til vositalari, imkoniyatlari bilan aniq va to'la qayta ifodalash demakdir. Tarjima-qayta ishlash, qayta hikoya qilib berish, qisqartirib bayon etish, har-xil “adaptatsiya”[13; 89-90-b.] lardan o'zining xuddi ana shu aniqligi va to'laligi bilan farq qiladi. Tarjimaning xillari:

1. Bir tildan ikkinchisiga - qardosh yoki qardosh bo'lmagan tilga tarjima qilish.

2. Adabiy tildan - o'sha tilning o'zining biron shevasiga va biron shevadan - adabiy tilga yoxud bir tilning shevasidan boshqa tilga tarjima qilish.

3. Qadimiy davr tilidan o'sha tilning hozirgi zamonaviy holatiga tarjima qilish. Masalan, qadimgi ingliz tilidan -hozirgi ingliz tiliga, yoki o'zbek tilidan - hozirgi o'zbek tiliga kabi[10; 244-b.]

Asl nusxada ifodalangan fikr bo'lak tilda ham xuddi aslidagiday to'la, aniq va ta'sirchan bo'lishi lozim. Bundan tashqari, tarjima o'sha asar o'girilgan tilning nazariy va amaliy me'yorlariga muvofiq bo'lishi darkor. Tarjimonning asl nusxaga sub'ektiv, xolis bo'lmagan munosabati asl nusxaga beixtiyor, o'zgacha ma'no berib qo'yishi, yoki bo'lmasa uni ko'ra-bila turib siyqalashtirishi mumkin. Bularning hammasi asarga nomaqbul, ya'ni aslida bo'lmagan mazmun bag'ishlanishiga, asl nusxadagi so'zlarga kontekst taqozosi bilan anglashilgan obyektiv mazmun o'rniga o'zgacha ma'no berib yuborishiga olib keladi.

Jek London ijodidagi tarjima asarlarni tahlil qilinganida quyidagi sintaktik figuralarni ko'plab uchratish mumkin: *joylar, muassasalar, urf-odatlarini va dinini, ularni yaratgan odamlarni, xattoki, bu odamlarning tabiatini o'rganmay turib, qanday tushuna olamiz? Adabiyot ham Misr ibodatxonalarini va ehromlari singari odam yaratgan narsa emasmi? Nahotki koinotga butun jahon takomili qonuniga ko'ra biron narsa bo'lmasa?* Men ayrim san'atlarining takomil tarixini ishlab chiqilganini bilaman, lekin yuzaki ishlangan menimcha.

Original adabiyot orqali o'z xalqimizning o'tmishi, bugungi va kelajak hayotini o'rgansak, badiiy tarjima asarlari orqali o'zga xalqlarning hayoti, o'tmishi, turmush tarzi bilan tanishamiz. Original adabiyot ham, tarjima adabiyoti ham bir xil ahamiyatga ega, ular bir xil rivojlanadi.

"Kish haqidagi qissa" hikoyasidagi:

*"It is charged," Ugh-Gluk said ominously, "that thou dealest with evil spirits, wherefore thy hunting is rewarded."*

*"Is not the meat good?" Keesh made answer. "Has one in the village yet to fall sick from the eating of it? How dost thou know that witchcraft be concerned? Or dost thou guess, in the dark, merely because of the envy that consumes thee?"* jumalar ritorik so'roq gaplar bo'lib, bu obrazning hayratini, kinoyasini bildiradi va javob berishni talab qilmaydi. Chunki har safar Kish olib kelgan go'sht teng taqsimlanar va hech kim bundan kasallanmagan va norozi bo'lmagan edi.

- *Olib kelayotgan go'shtlarim yomonmi? Yeganlardan biror kimsa kasal bo'lib qoldimi? Menga jodu yordam berayotganini qayerdan bilasan? Yoki o'zing o'ylab chiqdingmi? Alam qilayotgan ekan-da? – dedi Kish.*

Ritorik so'roq gaplarda ifodalangan fikr sof so'roq emas: sub'yekt yangi informatsiya olishni nazarda tutmaydi. So'roq javob talab qilmaydi, balki so'roq orqali hukm ifodalanadi. Uning sintaktik qurilishi logik mazmuniga mos kelmaydi. Ritorik so'roq gaplar ekspressiv funksiya bajaradi. Ular ko'tarinkilik, kuchli emotsiya bilan aytiladi. Emotsiya esa, bir tomondan, zaruriyatning konkret texnik formasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, individ zaruriyati nuqtai nazardan vaziyatni baholash, qayta sozlash, uni zaruriy harakatga tayyorlash mexanizmidir. Badiiy adabiyotda tasvir etiladigan manbalar doirasi juda ham kengdir. Adabiyot turli xil kasb-hunar egalarining, har xil toifadagi kishilarning his-hayajonlarini tasvirlabgina qolmay, ularning ichki dunyosini, jamiyatdagi amaliyotini ham aks ettiradi. Shuning uchun adabiy uslubda nutq va til vositalari qolgan uslubdagi qaraganda boshqacharoq - o'ziga xos xarakterda qo'llanadi: agar nutqning boshqa funksional stillari faqat u yoki bu hodisaning mazmunini xabar qilish uchun xizmat qilsa, badiiy nutq esa bundan tashqari, o'quvchi yoki tinglovchiga estetik va emotsional ta'sir ko'rsatishni ham maqsad qilib qo'yadi[8; 139-b.]

Demak, estetik ta'sir etish funksiyasi badiiy nutqning o'ziga xos xususiyatidir. Badiiy adabiyotning bu asosiy va o'ziga xos funksiyasiga adabiy asarda til vositalarini tanlash va ishlatish printsiplari ham to'la bo'ysunadi. Til vositalaridan individual ijodiy foydalanish badiiy stilning adabiy tilning boshqa funksional stillariga nisbat o'ziga xosligini belgilovchi eng asosiy xususiyatlardan biridir. Adabiy til stillarning har birida til vositalaridan foydalanishda individuallikning namoyon bo'lish darajasi turlicha.

Masalan, rasmiy stilda biron shaxsiy uslub "muhri"ni ko'rish, topish ancha qiyin. Shunga ko'ra, bu nutq stilida individuallikning namoyon bo'lishi uslub normasining buzilishi deb ham qaraladi. Ilmiy stilda esa individuallikning namoyon bo'lishi ehtimoldan uzoq emas, chunki bu stilni shaxs (individ)ning ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunday bo'lsa ham, til vositalarini individual ishlatish xususiyati ilmiy stil uchun xarakterli belgi bo'la olmaydi. Publitsistik stilda esa yanada boshqacharoq. Publitsistikaning ba'zi turlarida individual uslub aniq bilinib turishi mumkin. Ammo til

**ADABIYOTSHUNOSLIK**

vositalarini tanlash va ishlatishdagi individuallik publitsistik stilning barcha namunalariga xos xususiyat emas. Adabiy asarlarda individual xususiyatlar asarning badiiylilik qimmatini belgilovchi asosiy o'lchovlardan biridir.[9; 439-440-b.]

**XULOSA**

Umuminsoniy maqsadni ko'zlab qalam tebratgan har bir yozuvchi va shoirning asarlari faqat o'z xalqining mulki bo'lib qolmay, balki butun insoniyatning ham boyligidir.[3; 37-b.] Barcha xalqlar bir-birining adabiyoti va madaniyati bilan uzviy aloqa o'rnatgan taqdirdagina o'zlarining adabiyoti va madaniyatini rivojlantira oladilar. Alohida olingan har bir milliy adabiyot mavqeidan turib qaralsa, tarjima ko'proq rang-baranglik, xilma-xillikka qulaylik tug'diruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Biroq tarjima yangidan yangi janrlarning milliy adabiyotlarga kirib borishini ta'minlovchi unsur hisoblanadi va, shu jihatdan olib qaralsa, birlashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Jahon adabiyoti durdonalari tarjima tufayli bir tildan boshqa tilga o'girilganda, o'sha tilda so'zlashuvchi xalqning milliy ongini o'stirishda, yangicha estetik did paydo qilishda, dunyoqarashini tarbiyalashda faol rol o'ynaydi. Demak, tarjima tarbiyaviy, ma'rifiy ahamiyatga ega.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. M.Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birga barpo etamiz. Toshkent. "O'zbekiston", 2016. –35 b.
2. Jek London "Kish haqida qissa" Tarjima" Toshkent, 1996. –9 b.
3. Pulatov Yu. Badiiy asarda nomlar tarjimasi. T.: Fan, 1967. –37 b.
4. Федеров А.В. Введение теорию перевода, М., 1953. –139 b.
5. Флорин С. Непереводимое в переводе. М., 1980. –439-440 b.
6. Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. М.: Русский язык, 1984. –244 b.
7. Galperin I. R. An Essay in Stylistic Analysis. M., Higher School, 1968. –89-90 b.
8. Hill, Archibald. Poetry and Stylistics. "Essays in Literary Analysis", Austin, 1965. –55-56 b.
9. Letter from Jack London. – N.Y., 1965.
10. [http://en.wikipedia.org/wiki/Jack\\_London](http://en.wikipedia.org/wiki/Jack_London).
11. <http://www.lex.uz/>
12. <http://www.ziyonet.uz/>